

The data in Table 1 show that tax audits conducted in the analyzed years 2021-2023 increased, in 2021 their number was 139, and in 2023 they were conducted at 2130 enterprises. As a result, the amount of taxes that should have been transferred to budgets of different levels, but were not received, in 2023 alone amounted to 1457.5 billion. amounted to sums. That is, due to various methods and factors during the audit process, an additional tax was assessed.

If we draw a conclusion from this analysis, then every year the increase in tax audits and the creation of various illegal methods of tax evasion by taxpayers requires the digitalization of tax control.

In the author’s opinion, the following should be considered when digitizing tax control in the country:

- Today, with digitalization underway in all areas, it is necessary to take tax audits conducted by tax authorities on taxpayers to a new level. That is, digitizing tax audits and conducting them remotely is an acceptable way for both the tax authority and the taxpayer;

- It is advisable to unify the types of tax audits and transform them into a single type of digitized tax audit.

IPOTEKA KREDIT DAVLAT SUBSIDIYASINI OLISHDAGI BA’ZI HUQUQIY VA IQTISODIY KO’RSATMALAR

*Chinibekova Ruxshona Baxodir qizi*²⁵⁵

Annotatsiya: Mazkur tezis ipoteka krediti va davlat subsidiyalarining ahamiyatini tushunishga yordam berib, uy-joy xarid qilishda subsidiya olishni rejalashtirayotgan fuqarolar, iqtisodiy tadqiqotchilar va davlat boshqaruvi organlari uchun muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. Ipoteka kreditiga davlat subsidiyasini olish jarayoni, huquqiy asoslari, shartlari va iqtisodiy-ijtimoiy ta’siri batafsil yoritilgan. O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga tayanib, subsidiyalarni ajratish tartibi, imtiyozli toifalar, ariza topshirish jarayoni va subsidiya mexanizmlarining uy-joy bozoriga ta’sirini o‘rganadi. Shuningdek, ipoteka kreditlari uchun subsidiya ajratishning mamlakat iqtisodiyotiga ta’siri va jamiyat farovonligini oshirishdagi rolini tahlil qiladi.

Kalit so‘zlar: Ipoteka krediti, davlat subsidiyalari, uy-joy, iqtisodiy va ijtimoiy ta’sir.

Kirish: Mamlakatimizda aholini uy-joy bilan ta’minlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Shu maqsadda ipoteka kreditga davlat

²⁵⁵ Xalqaro Nordik Universiteti Moliya va moliyaviy texnologiyalar yo‘nalishi talabasi chinibekovaruxshona@gmail.com

subsidiyasini ajratish mexanizmi joriy etilgan bo‘lib, bu fuqarolar uchun moliyaviy yukni yengillashtiradi va uy-joy sotib olish imkoniyatini oshiradi.

Uy-joy muammosi ko‘plab mamlakatlar uchun dolzarb bo‘lib, aholi farovonligini oshirish va iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash yo‘lida davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash mexanizmlaridan biri sifatida subsidiya tizimi rivojlantirilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 25-martdagи 182-sон qarori: Ushbu qaror bilan “Uy-joy sotib olish uchun fuqarolarga subsidiya to‘lash tartibi to‘g‘risidagi nizom”²⁵⁶ Mazkur nizomda ipoteka krediti bo‘yicha davlat subsidiyasini olish tartibi va shartlari belgilangan. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 14-oktabrdagi 601-sон qarori²⁵⁷: Ushbu qarorda ipoteka krediti va uy-joy sotib olish uchun subsidiya ajratish jarayonlarini soddalashtirish chora tadbirlari belgilangan.

Ipoteka krediti – bu ko‘chmas mulk, bino va inshootlar hamda yer maydonlarini garovga olgan holda ko‘chmas mulklarni sotib olish, ularni yangidan barpo etish yoki ta’mirlash, yerlarni o‘zlashtirish maqsadlarida ajratiladigan uzoq muddatli ssuda hisoblanadi.²⁵⁸

Ipoteka krediti uy-joyga ega bo‘lish uchun muhim vositadir, lekin qarz oluvchilar va qarz beruvchilar uchun xavf hamda to‘silalar doim mavjud. Kreditorlar qarz oluvchining to‘lovga layoqatsizligi, mulk qiymatining pasayishi va foiz stavkalari xavfiga duch kelishadi.²⁵⁹

Davlat subsidiyalari — xo‘jalik yurituvchi subyektning operatsiya faoliyatiga taalluqli muayyan sharoitlarda xo‘jalik yurituvchi subyektga resurslarni berish tarzida hukumat tomonidan beriladigan yordam.²⁶⁰

Davlat subsidiyasi – bu hukumat tomonidan aholiga moliyaviy yordam sifatida ajratiladigan mablag‘ bo‘lib, u ipoteka kreditlarining foiz stavkasini pasaytirish yoki boshlang‘ich badalni to‘lash uchun mo‘ljallangan. Davlat tomonidan bunday subsidiya ajratishning asosiy maqsadi aholining keng qatlamlariga uy-joy sotib olish imkoniyatini yaratish va ipoteka yukini kamaytirishdir. Subsidiyalar uy-joy sotib olishni moliyaviy jihatdan qulaylashtiradi va aholining turmush darajasini oshirishga xizmat qiladi.²⁶¹

²⁵⁶ <https://my.gov.uz/>

²⁵⁷ <https://lex.uz/uz/docs/-6238561>

²⁵⁸ <https://scientechnology.uz/index.php/s/article/download/519/506>

²⁵⁹ <https://econferenceseries.com/index.php/srnss/article/download/3908/3802>

²⁶⁰ <https://lex.uz/uz/docs/-821447?ONDATE=25.07.2024>

²⁶¹ <https://my.gov.uz/>

Davlat budgeti hisobidan uy-joy olish uchun ipoteka krediti dastlabki badalning bir qismini qoplash uchun: 30 000 000 so‘m va foiz to‘lovlarni qoplash uchun ipoteka krediti bo‘yicha yillik foiz stavkasining bir qismi davlat tomonida to‘lab boriladi.²⁶²

Ipoteka kreditiga davlat subsidiyasini olish uchun quyidagi shartlarga javob berish talab etiladi:

Fuqrolik va daromad manbai ya’ni ariza beruvchi O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi bo‘lishi hamda qonuniy daromad manbaiga ega bo‘lishi lozim.

Subsidiyalar daromadi yuqori bo‘lmagan va uy-joy sharoitini yaxshilashga muhtoj oilalarga ijtimoiy mezonlar asosida beriladi.

Uy-joyga ega bo‘lmagan, ya’ni oldin o‘z nomida uy-joy bo‘lmagan shaxslar subsidiya olishlari mumkin.

Ipoteka kreditini olish uchun avval, ariza beruvchi ipoteka kreditini tasdiqlatishi va subsidiya olish uchun moliyaviy talablarni bajara olishi kerak.

Hujjatlarni taqdim etishda, ariza beruvchi davlat xizmatlari markaziga yoki Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalı orqali ariza va zarur hujjatlarini taqdim etishi lozim.

263

Ipoteka kreditiga davlat subsidiyalarining ajratishi nafaqat fuqarolar uchun moliyaviy yengillik, balki iqtisdiyot va jamiyatga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Ushbu ta’sirlar iqtisodiy va ijtimoiy jihatlarda har xil nomoyon bo‘ladi.

Iqtisodiy ta’sirlari:

Uy-joy bozorining rivojlanishi, davlat subsidiyalari aholining ipoteka kreditiga bo‘lgan qiziqishini oshiradi, natijada talab ortadi. Bu esa:

Qurilish sektorini faollashtiradi va kompaniyalarni ko‘proq yangi uylar qurishiga turtki bo‘ladi;

Ish o‘rinlarini yaratilishi ishchi kuchiga bo‘lgab talabni orttiradi, natijada bandlik darajasining oshishiga xizmat qiladi;

Ipoteka kreditlari bo‘yicha subsidiya ajratilishi banklarning likvidligi va daromadiligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi hamda qarz oluvchilarga nisbatan xavfni kamaytiradi;

Uy-joy sotib olgan fuqarolar yangi mebel, maishiy texnika va ta’mirlash xizmatlariga ehtiyoj sezishadi bu esa, ichki bozor, kichik bizneslar va savdo sektorlarining rivojlanishi uchun sharoit yaratadi;

Uy-joy bozorining faollashishi davlat budgetiga tushadigan soliqlar hajmini orttiradi bu davlatning iqtisodiy salohiyatini oshishiga yordam beradi.

²⁶² <https://lex.uz/uz/docs/-6238561>

²⁶³ <https://my.gov.uz/>


Ijtimoiy ta’sirlari:

Aholining turmush darajasini oshirishi xususan, kam daromadli oilalar va ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslar uchun davlat subsidiyalari yordamchi vosita bo‘lib xizmat qiladi;

Jamiyatda iqtisodiy tabaqalanish davlat subsidiyalari orqali uy-joy sotib olish imkoniyatlarini kengaytiradi va tabaqalanish darajasini pasaytiradi bu ijtimoiy barqarorlik va jamiyatdagi ijtimoiy adolat prinsplarini mustahkamlashga xizmat qiladi;


Davlat subsidiyalari faqatgina yirik shaharlarni emas, balki kichik shahar va qishloqlarda ham uy-joy qurilishini rag‘batlantiradi, natija esa migratsiya oqibatida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan inqirozlarni oldini olishga yordam beradi; Uy-joy sharoitlarining yaxshilanishi yosh oilalarning o‘z hayotini barqaror rejalashtirishiga yordam beradi, bu esa tug‘ilish ko‘rsatkichlariga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi mumkinligidan dalolatdir.

Ushbu ta’sirlar O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 28-noyabrdagi PF-5886-sон Farmonida belgilangan bozor tamoyillariga asoslangan ipoteka kreditlari orqali aholini uy-joy bilan ta’minalashning yangi tartibi doirasida ko‘zga tutilgan maqsad va vazifalarga muvofiqdir.²⁶⁴ Quyida 2017-2024-yillarda O‘zbekistonda ipoteka kreditlari statistikasi keltirilgan.



1-rasm: Tijorat banklari tomonidan berilgan ipoteka kreditlari (milliard so‘m)

²⁶⁴ <https://lex.uz/docs/4637331>



2-rasm: Berilgan ipoteka kreditlari, hududlar bo‘yicha (milliard so‘m)²⁶⁵

Xulosa: Davlat subsidiyalari ipoteka kreditlari orqali iqtisodiyot va jamiyatga keng qamrovli ta’sir ko‘rsatadi. Bu subsidiya nafaqat fuqarolarga moliyaviy yengillik yaratadi, balki qurilish va bank sektorini rivojlantiradi, ish o‘rinlarini oshiradi, ichki iste’molni faollashtiradi va davlat budgetiga qo‘srimcha daromad keltiradi.

Ijtimoiy jihatdan esa aholining turmush darajasini oshirish, ijtimoiy tenglikni mustahkamlash va urbanizatsiya jarayonlarini muvozanatlashtirish kabi muhim omillarga ijobiy ta’sir qiladi.

Davlat subsidiyalaring samarali ishlashi uchun ularning taqsimlanishida shaffoflik va adolat prinsplariga amal qilish muhimdir. Shu bilan birga, subsidiya oluvchilar orasida haqiqatdan uy-joyga muhtoj bo‘lgan qatlarni vakillarini aniqlash va ularga imtiyozlarni adolatli taqsimlash dolzarb masaladir.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Manzura Mo‘minjonova: International Journal of Science and Technology ISSN 3030-3443 Volume 1, Issue 19, May. 2024. Sahifa 8-bet.
2. Komilov Boburjon Shuxrat o‘g‘li: Proceedings of International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences Hosted online from Toronto, Canada. Date: 5 th March, 2024 ISSN: 2835-5326. Sahifa 14-bet.
3. <https://my.gov.uz/>. Yagona interaktiv davlat xizmatlari portal.
4. <https://www.lex.uz/> O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi.
5. <https://uzmrc.uz> Ipoteka kreditlari statistikasi.

²⁶⁵ <https://uzmrc.uz/uz/refinance-programm/ipoteka-kreditlari-statistikasi/>